



INSONNING O'Z OLDIGA QO'YGAN MAQSADIGA ERISHISHDA MOTIV VA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI

Sh. A. Mardiyeva

SamDCHTI dotsenti v. b. p. f. f.d(PHD)

S.N.Qayumova

SamDCHTI, Ingliz tili fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insonning o'z oldiga qo'ygan turli xil maqsadlarida motiv va motivatsiyaning o'rni va bunda qancha rol o'ynashligi haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, bu maqolada yuqori yutuqlarga, maqsadlarga erishgan insonlar tomonidan keltirilgan aforizmlar bayon etilgan. Shu bilan birga, insonning shaxs sifatida shakllanishida motivatsiya qay darajada ta'sir ko'rsatishi ham ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *motiv, motivatsiya, idrok, aql-zakovat, maqsad, mantiq, tasavvur.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль мотива и мотивации в достижении человеком различных целей, а также то, насколько они важны в этом процессе. Кроме того, приведены афоризмы, высказывания людей, достигших высоких результатов и целей. При этом подчеркивается и то, насколько мотивация влияет на формирование человека как личности.*

Ключевые слова: *мотив, мотивация, восприятие, интеллект, цель, логика, воображение, концепция личности.*

Annotation: *This article discusses the role of motive and motivation in achieving various goals set by a person, as well as how significant they are in this process. In addition, the article presents aphorisms and quotes from people who have achieved great success and goals. At the same time, it is also emphasized how much motivation influences the formation of a person as a person.*

Keyword: *motive, motivation, perception, intellect, goal, logic, imagination, individuals*

Muvaffaqiyat - bu ishtiyoqni yo'qotmasdan muvaffaqiyatsizlikdan muvaffaqiyatsizlikka qoqilishdir. (Uinston S. Cherchill)

Avvalambor, motiv nima? Motiv — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil va motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida Motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Masalan, mashinalarni ishga tushuruvchi mexanizm motorlar bo'lsa, insonni biror ishga, maqsadga yo'naltirishga motivatsiya alohida rol o'ynaydi. Bugungi o'sib borayotgan hayotda ko'pchilik yoshlarda sodir bo'layotgan narsa.



maqsadni to'g'ri tanlab olmaslik yoki unga erishish uchun yetarlicha motivatsiyaning yetishmasligi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuningdek, bir maqsaddan keyingisiga o'tishda motivatsiyaning o'rni juda ham katta. Shu o'rinda, Tomas Edisonning: "Muvaffaqiyatga erishishning eng aniq yo'li har doim yana bir urinib ko'rishdir", - degan iqtibosini keltirmoqchiman. Ko'pchilik yoshlar biror muvaffaqiyatga erishmasa yoki o'qish, imtihonlardan o'ta olmasa, muvaffaqiyatsizlikka duch kelsa, tezda buni tashlab ketishga, boshqa maqsadda o'tishga shoshilishadi. Nima uchun bunaqa bo'layotgani haqida o'ylashsa, javob topa olishmaydi. Maqsad yo'lidagi harakatlarda to'xtalishning bosh sabablaridan biri insonning maqsadi yo'lidagi motivni yo'qotib qo'yishlaridir. Mana shunday holatlarda insonlarda to'xtab qolmasdan davom ettirishlari uchun motivatsiyaning o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda motiv va motivatsiya roli haqida ozgina ma'lumot keltirish joizdir.

Motivatsiya - bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat - bu istak.

Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya „motiv“ so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin.

Xo'sh, insonlar odatda motivatsiyani kimdan oladi? Albatta, atrofdagi odamlardan, yaqin insonlaridan, ustozlari, ota-onalaridan oladi. Ayniqsa, tonidan oladi. Ayniqsa, ota-onalarimiz tomonidan berilgan motivatsiya qorong'u xonada yorug'lik bag'ishlaydigan chiroq kabi hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda muallif sifatida hayotimda ota-onam, yaqinlar tomonidan berilgan motivatsiyaning roli haqida ta'kidlab o'tmoqchiman. Ikki yil oldin har doim o'zimga "Maqsadlarimga erisha olamanmi?" "Sertifikatlardan, imtihonlardan qanday o'tsam ekan?" Ota-onam ishonchlarini oqlarmikanman?" der edim. Bir kun hammasini onamga aytib berib, juda ham yengil bo'ldim. Ular: "Qizim, biz senga ishonamiz, hech narsaga ham osonlikcha erishilmaydi, hammasini boshidan boshla. "INSON INTILGAN NARSASIGA ALBATTA ERISHADI", deyishdi. Shundan so'ng, men o'zgacha kuch bilan dars qilishni boshladim, har doim biror qiyinchilikka duch kelsam, onam tomonidan aytilgan so'zlarni eslayman-da, yana davom ettiraman. "Men albatta talaba bo'laman", degan maqsadni o'z oldimga qo'ydim va 2025-2026-yillarda Samarqand davlat chet tillari instituti budjet talabasi degan maqomga erishdim. Maqsadlarimizda erishishni motivatsiyaning roli katta ekanligini o'z tajribamdan bilganman.



Quyida men mashhurlar tomonidan keltirilgan aforizmlarga alohida e'tibor qaratmoqchiman va ushbu fikrlaringa maqsadga yetaklovchi kuch sifatida o'qib, amal qilishingizni tavsiya etmoqchiman.

1. "To'xtamasangiz, qanchalik sekin borishingiz muhim emas. " - Konfutsiy. Fikrni izohlaydigan bo'lsak, muhimi to'xtab qolmaslik, "toma-toma ko'l bo'lur", - deganlaridek, bitta maqsad qo'ydikmi, oxiriga yetkazmagunimizcha harakat qilishimiz kerak.

2. "Mag'lubiyatdan qo'rqish g'alaba hayajonidan kattaroq bo'lishiga yo'l qo'ymang. " - Robert Kiyosaki. fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mag'lubiyatdan qo'rqish evaziga ko'plab insonlar o'z maqsadlaridan, orzularidagi kasblardan voz kechishadi. Shunday holatda, "Har bir maqsad yashashga haqli " degan shiorga amal qilib to'xtab qolmasdan harakat qilinsa, o'ylaymanki, har narsaga erisha olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hayotimizdagi yaxshi va yomon o'zgarishlar qo'ygan maqsadlarimiz asosida shakllanadi. Maqsadlarimiz esa kelajakka yetaklaydi. To'g'ri, goh maqsadlarimizga erishimizda to'siqlarga, muvaffaqiyatsizliklarga duch kelamiz, buning asosiy sababi chalg'ish yoki maqsadni to'g'ri qo'ymasligimizdandir. Har narsaning imkoni bor, xohish bo'lsa bas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://ruhshunos.uz>
2. <http://ahaslides.com>
3. <http://uz.wikipedia.org>.
4. Journal of Integrated education.
5. <https://aliacademy.uz>